

Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-iyun oylarida, Jizzax viloyatida jami 4 805,3 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2025- yilning mos davriga nisbatan 119,9 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajmi, mlrd so'm*	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	4 805,3	119,9
Jizzax shahri	1 447,6	115,2
Arnasoy	68,2	111,1
Baxmal	151,9	111,5
G'allaorol	249,4	161,1
Sharof Rashidov	580,0	110,6
Do'stlik	152,7	112,9
Zomin	541,1	125,9
Zarbdor	95,5	115,9
Mirzacho'l	57,4	178,6
Zafarobod	71,3	2,3 m
Paxtakor	211,0	191,3
Forish	226,3	119,0
Yangiobod	17,2	169,9

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

I. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurilishi hajmi 3 700,1 mlrd so'mni (ulushi 77,0 %), o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 116,9 %;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 884,2 mlrd so'mni (18,4 %), o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 132,2 %
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 221,0 mlrd so'mni (4,6 %), o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 84,0 % ni tashkil qildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 679,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Kuzatilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 62,9 foizga o'sib, ularning umumiy hajmdagi ulushi 14,1 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 61,2 % to'g'ri kelib, bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2938,8 mlrd so'mni tashkil qildi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga o'sdi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 24,7 % ni yoki 1187,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 13,8 % ga o'sdi.

**Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari**



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Jizzax viloyati	679,4	2938,8	1187,1	142,7	118,2	113,8
Jizzax shahri	86,1	1237,5	124,1	48,1	125,8	132,2
Arnasoy	9,2	47,5	11,4	147,8	113,8	85,8
Baxmal	8,2	56,6	87,1	74,8	91,3	137,8
G'allaorol	135,1	46,6	67,7	14,7 m	57,9	104,0
Sharof Rashidov	61,1	457,4	61,5	3,5 m	103,9	92,1
Do'stlik	5,3	87,2	60,1	51,5	113,3	125,6
Zomin	177,7	285,3	78,0	192,4	105,3	117,6
Zarbdor	5,5	46,7	43,3	3,2 m	120,8	103,2
Mirzacho'l	13,0	19,4	25,0	3,2 m	181,9	143,2
Zafarobod	35,4	10,8	25,1	4,2 m	4,1 m	133,5
Paxtakor	26,4	141,8	42,8	2,1 m	2,2 m	126,2
Forish	10,6	188,4	27,3	119,5	122,7	98,3
Yangiobod	2,5	6,5	8,1	113,0	8,8 m	113,6

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari G'allaorol tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 14,7 m), Zafarobod tumani (4,2 m) va Sh. Rashidov tumanlarida (3,5 m), qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Yangiobod tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 8,8 m), Zafarobod (4,1 m) va Paxtakor (2,2 m) tumanlarida kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);



b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

K. Butunbayeva
72 221-51-02

Manzil:

Kimyogar maxallasi to'qimachilar
ko'chasi
